




SURXONDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI



*(2021- yil yanvar-avgust oyi
uchun dastlabki
ma'lumot)*








O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.


2021- yilning yanvar-avgust oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA **273 449,2** ming. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilga nisbatan **21 756,8** ming. AQSh dollariga yoki **8,6** % ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-avgust, ming. AQSh dollari)

	2020- yil	2021- yil	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
 Tashqi savdo aylanmasi	251 692,4	273 449,2	108,6	x
Eksport	133 765,4	127 585,6	95,4	100,0
 tovarlar	132 516,2	124 835,4	94,2	97,8
 xizmatlar	1 249,2	2 750,2	2,2 m.	2,2
Import	117 927,0	145 863,6	123,7	100,0
 tovarlar	117 906,4	145 802,2	123,7	99,9
 xizmatlar	20,6	61,4	3,0 m.	0,1
Saldo	15 838,4	-18 278,0	x	x





Ma'lumot uchun: Surxondaryo viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSAda eksport hajmi **127 585,6** ming. AQSh dollariga (**4,6 %** ga kamaydi) va import hajmi **145 863,6** ming. AQSh dollariga (**23,7 %** ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida **-18 278,0** ming. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

SURXONDARYO VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2021- yil yanvar-avgust, ming. AQSh dollari)



Xitoy Xalq Respublikasi

TSA – 110 688,4
Eksport – 53 633,7
Import – 57 054,7



Rossiya Federatsiyasi

TSA – 31 368,2
Eksport – 13 391,5
Import – 17 976,6



Pokiston

TSA – 29 170,0
Eksport – 23 135,6
Import – 6 034,4



Oozog'iston

TSA – 26 243,4
Eksport – 5 390,1
Import – 20 853,3



Turkiya

TSA – 18 229,2
Eksport – 8 758,2
Import – 9 470,9



Afg'oniston

TSA – 12 897,6
Eksport – 12 666,0
Import – 231,6



Ukraina

TSA – 9 159,7
Eksport – 829,5
Import – 8 330,2



Tojikiston

TSA – 6 346,9
Eksport – 3 365,0
Import – 2 981,9



Germaniya

TSA – 5 325,9
Eksport – 131,2
Import – 5 194,7



Eron

TSA – 4 533,6
Eksport – 213,3
Import – 4 320,2






Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun respublikada zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Qozog'iston, Tojikiston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSAda eng yuqori ulush Pokiston, Afg'oniston, Qirg'iz Respublikasi, davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



20 TA YIRIK HAMKOR-DAVLATLAR ICHIDA UCHTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR (2021- yil yanvar-avgust)




Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan beshta davlatda faol tashqi savdo balansi

kuzatilgan, xususan, Pokiston (17 101,2 ming. AQSh dollari), Afg'oniston (12 434,4 ming. AQSh dollari), Qirg'iz Respublikasi (2 404,6 ming. AQSh dollari), Ozarbayjon (843,9 ming. AQSh dollari) va Tojikiston (383,1 ming. AQSh dollari) shular jumlasidandir.

Qolgan 15 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.











Surxondaryo viloyati, jahonning 48 ga yaqin mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (40,5 %), Rossiya Federatsiyasida (11,5 %), Pokistonda (10,7 %), Qozog'istonda (9,6 %), Turkiyada (6,7 %), Afg'oniston (4,7 %), Ukraina (3,3 %), Tojikiston (2,3) va Germaniya (1,9 %) qayd etilgan.






SURXONDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-avgust, ming. AQSh dollari)











	Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
	Xitoy Xalq Respublikasi	100142,9	85427,8	110688,4
	<i>Eksport</i>	38344,1	35050,4	53633,7
	<i>Import</i>	61798,8	50377,4	57054,7
	Rossiya Federatsiyasi	27841,8	32326,3	31368,2
	<i>Eksport</i>	12826,0	16007,0	13391,5
	<i>Import</i>	15015,8	16319,3	17976,6
	Pokiston	49274,0	20384,8	29170,0
	<i>Eksport</i>	45469,5	18729,7	23135,6
	<i>Import</i>	3804,5	1655,1	6034,4
	Qozog'iston	28768,1	19506,2	26243,4
	<i>Eksport</i>	14376,3	4317,8	5390,1
	<i>Import</i>	14391,8	15188,3	20853,3
	Turkiya	24446,3	16660,1	18229,2
	<i>Eksport</i>	2131,4	8179,6	8758,2
	<i>Import</i>	22314,9	8480,5	9470,9
	Afg'oniston	39172,3	30446,3	12897,6
	<i>Eksport</i>	38986,1	30334,8	12666,0
	<i>Import</i>	186,2	111,5	231,6
	Ukraina	3824,7	2137,4	9159,7
	<i>Eksport</i>	578,0	608,9	829,5
	<i>Import</i>	3246,7	1528,6	8330,2
	Tojikiston	12697,1	10712,1	6346,9
	<i>Eksport</i>	3775,4	4713,8	3365,0
	<i>Import</i>	8921,7	5998,3	2981,9
	Germaniya	1422,7	2848,9	5325,9
	<i>Eksport</i>	177,5	103,8	131,2
	<i>Import</i>	1245,2	2745,1	5194,7
	Eron	6795,2	1124,9	4533,6
	<i>Eksport</i>	837,6	-	213,3
	<i>Import</i>	5957,6	1124,9	4320,2





SURXONDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-avgust, ming. AQSh dollari)


	Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
	Qirg'iz Respublikasi	130,4	12257,8	3891,3
	<i>Eksport</i>	30,3	11224,8	3147,9
	<i>Import</i>	100,1	1033,0	743,4
	Belgiya	38,6	65,1	2965,2
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	38,6	65,1	2965,2
	Italiya	350,3	1829,2	1557,9
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	350,3	1829,2	1557,9
	Koreya Respublikasi	13550,2	3732,9	1252,6
	<i>Eksport</i>	192,9	4,3	-
	<i>Import</i>	13357,3	3728,6	1252,6
	Turkmaniston	5496,8	984,7	1183,4
	<i>Eksport</i>	108,4	11,8	223,4
	<i>Import</i>	5388,4	972,9	960,0
	Belorussiya	4508,8	1301,4	1167,5
	<i>Eksport</i>	429,9	408,6	406,1
	<i>Import</i>	4078,9	892,7	761,4
	Hindiston	1804,0	2875,9	1079,1
	<i>Eksport</i>	26,8	174,1	64,7
	<i>Import</i>	1777,2	2701,8	1014,3
	Lyuksemburg	-	-	1050,0
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	-	-	1050,0
	Ozerbayjon	181,5	318,1	996,7
	<i>Eksport</i>	36,7	239,1	920,3
	<i>Import</i>	144,8	79,0	76,4
	Gretsiya	63,1	-	574,6
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	63,1	-	574,6





SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-avgust 2021- yil)



	Ming. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati	273 449,2	108,6
Termiz sh.	33 332,0	96,1
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	5 655,8	98,1
Angor	6 537,6	49,7
Bandixon	2 271,2	7,7
Boysun	5 075,1	76,1
Denov	24 658,2	69,2
Jarqo'rg'on	27 249,6	93,7
Qumqo'rg'on	8 825,5	125,9
Qiziriq	16 174,6	3,6 m.
Muzrabot	32 736,0	4,2 m.
Sariosiyo	22 292,6	110,0
Termiz	42 010,8	4,0 m.
Uzun	5 421,6	32,6
Sherobod	20 839,9	109,6
Sho'rchi	6 940,0	83,1

Eng yuqori hajm,
ming. AQSh dollari

Termiz - 42 010,8

Termiz sh. – 33 332,0

Muzrabot – 32 736,0

Eng quyi hajm,
ming. AQSh dollari

Uzun – 5 421,6

Boysun – 5 075,1

Bandixon – 2 271,2

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Termiz tumani **15,4** % ulush bilan **33 429,7** ming. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni Bandixon tumani **0,8** % ulush bilan **2 271,2** ming. AQSh dollarini tashkil etdi.







Surxondaryo viloyati tashqi savdo aylanmasining uchdan bir qismi MDH davlatlariga to'g'ri keladi va bu ko'rsatkich so'nggi yillarda biroz o'zgardi.

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, 2021- yilning yanvar-avgust oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **29,4 %** ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2020- yilga nisbatan ulushi **4,5 %** ga ko'payib 2019- yilga nisbatan ulushi **5,7 %** ga ko'paygan.

SURXONDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-avgust, ming. AQSh dollari, ulushi, % da)




Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2021- yilning yanvar-avgust oylarida 2020- yilga nisbatan **2,2 %** ga kaavgustdi va jami TSAdagi ulushi **70,6 %** ni tashkil etdi.





SURXONDARYO VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI


(2021- yil yanvar-avgust, ming. AQSh dollari)



Surxondaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2021- yil yanvar-avgust holatiga **80 374,2** ming. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport – **27 673,9** ming. AQSh dollariga yetgan bo'lsa, import – **52 700,3** ming. AQSh dollari qiymatida qayd etildi.

Surxondaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya Federatsiyasi (**39,0** %), Qozog'iston (**32,7** %), Ukraina (**11,4** %) , Tojikiston (**7,9%**) va Qirg'iz Respublikasi (**4,8** %) davlatlari bilan qayd etildi.





SURXONDARYO VILOYATI EKSPORTI


(2021- yil yanvar-avgust)



Joriy yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning eksportyorlari soni **230** tani tashkil etib, ular tomonidan **127 585,6** ming. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2020- yilning mos davriga nisbatan **4,6** % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2021- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)



Eksport tarkibida tovarlar ulushi **97,8** % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**55,1** %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**34,7** %) va yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat xomashyosi (**6,4** %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.





SURXONDARYO VILOYATI XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI *(yanvar-avgust, yillar kesimida)*



XSST tarkibi	Ming. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Jami eksport	133 765,4	127 585,6	83,0	95,4	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	70 587,5	44 316,2	66,4	62,8	52,8	34,7
Ichimliklar va tamaki	74,9	287,1	-	3,8 m.	0,1	0,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	13374,1	8141,9	3,5 m.	60,9	10,0	6,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	51,2	31,8	76,4	62,1	-	-
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1946,9	-	161,9	-	1,5	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	346,6	79,6	20,0 m.	23,0	0,3	0,1
Sanoat tovarlari	41764,9	70348,5	87,6	168,4	31,2	55,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	53,6	211,3	26,5	3,9 m.	-	0,2
Turli xil tayyor buyumlar	4316,4	1419,2	30,7 m.	32,9	3,2	1,1
Xizmatlar	1249,2	2750,2	67,2	2,2 m.	0,9	2,2





XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-avgust)



XSST bo'limi nomi	Ming. AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	37 951,9	59,3
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	5 450,5	107,9
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	416,8	129,7
Tirik hayvonlar, 03 bo'limiga kiritilgan hayvonlardan tashqari	256,6	47,7
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	185,9	54,8
Xayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	48,5	45,7
Turli xil ovqatlar va preparatlar	3,2	111,4
Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar malyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va ulardan tayyorlangan yarim tayyor mahsulotlar	1,4	42,4
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	1,3	0,6
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	287,1	4,8 m.
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari (tops va boshqa titilgan jundan tashqari) va ularning chiqindilari (ip kalava va mato holatiga keltirilmagan)	6 195,9	79,1
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	1 507,2	172,7
Xayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	295,9	13,6
56 bo'limga kiritilgandan tashqari o'g'itlar uchun xom-ashyo va mineral xomashyo (ko'mir,neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	142,9	5,7
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Bo'yoqlar, taninlar va bo'yoqlar	28,8	3,3 m.
O'g'itlar (272 guruhga kiritilganlardan tashqari)	27,4	-
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalar;hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	22,8	13,4
Noorganik kimyoviy moddalar	0,5	1,7
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	0,02	0,2






XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-avgust)



XSST bo'limi nomi	Ming. AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, boshqa joyda tasniflanmagan tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	67795,2	167,1
Metaldan tayyorlangan buyumlar boshqa joyda tafsiflanmagan	1444,9	30,1 m.
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tafsiflanmagan	1089,4	101,5
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	9,8	32,2
Mantar va yog'ochdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	6,0	27,6
Boshqa joylarda tasniflanmagan charm, charm buyumlar, mo'yna	3,1	-
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	0,01	85,7
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomashinalar (xavfsizlik yostiqlarini ham o'z ichiga olgan holda)	176,4	5,1 m.
Muayyan tarmoqlar uchun maxsus ishlab chiqarilgan mashinalar	27,0	2,8 m.
Energiya generatori mashinalari va asbob – uskunolari	6,0	10,2 m.
Sanoat va mashina qismlari uchun ixtisoslashtirilgan bo'lmagan mashina va uskunalar	1,9	35,6
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	1 299,0	37,0
Poyabzal	80,1	16,0
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	27,9	22,3
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	7,3	4,5
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari boshqa joyda tavsiflanmagan	4,6	-
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	0,2	-
Xizmatlar		
Transport xizmatlari	1186,9	2,4 m.
Sayohat	881,3	10,7 m.
Moliyaviy xizmatlar	559,8	107,9
Boshqa biznes xizmatlari	122,2	83,7








MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-avgust, ming. AQSh dollari, ulushi, % da)



So'nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2019-yilning yanvar-avgustidagi **20,0 %** dan 2021- yilning yanvar-avgustida **21,7 %** ga oshdi. Shunga ko'ra, boshqa xorijiy mamlakatlarning umumiy eksport hajmidagi ulushi **80,0%** dan **78,3%** gacha oshdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR-NING ULUSHI (2021- yil yanvar-avgust, % da)

2021- yilning yanvar-avgust oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Xitoy Xalq Respublikasi (eksport umumiy hajmining **42,0 %**), Pokiston (**18,1 %**), Rossiya Federatsiyasi (**10,5 %**), Afg'oniston (**9,9 %**), Turkiya (**6,9 %**), Qozog'iston (**4,2 %**) va Tojikiston (**2,6 %**) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi **94,2** foizni tashkil etmoqda.





SURXONDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORT HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-avgust, yillar kesimida)




Davlatlar	Ming. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Xitoy Xalq Respublikasi	35 050,4	53 633,7	91,4	153,0	1	1
Pokiston	18 729,7	23 135,6	41,2	123,5	3	2
Rossiya Federatsiyasi	16 007,0	13 391,5	124,8	83,7	4	3
Afg'oniston	30 334,8	12 666,0	77,8	41,8	2	4
Turkiya	8 179,6	8 758,2	383,8	107,1	6	5
Qozog'iston	4 317,8	5 390,1	30,0	124,8	8	6
Tojikiston	4 713,8	3 365,0	124,9	71,4	7	7
Qirg'iz Respublikasi	11 224,8	3 147,9	37 061,5	28,0	5	8
Ozerbayjon	239,1	920,3	650,8	384,9	13	9
Ukraina	608,9	829,5	105,3	136,2	10	10





SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2021- yil yanvar-avgust)



	Ming. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati	127 585,6	95,4
Termiz sh.	5 185,2	36,6
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	4 303,0	85,9
Angor	5 112,1	46,9
Bandixon	1 689,6	41,3
Boysun	3 375,4	65,9
Denov	15 108,0	86,7
Jarqo'rg'on	20 583,9	109,8
Qumqo'rg'on	6 301,3	104,5
Qiziriq	1 381,2	36,0
Muzrabot	5 883,2	95,2
Sariosiyo	12 776,2	111,8
Termiz	17 176,5	2,8 m.
Uzun	4 476,9	76,6
Sherobod	19 536,3	183,4
Sho'rchi	4 278,8	82,2

Eng yuqori hajm,
ming. AQSh dollari

Jarqo'rg'on - 20 583,9

Sherobod - 19 536,3

Termiz – 17 176,5

Eng quyi hajm,
ming. AQSh dollari

Boysun – 3 375,4

Bandixon – 1 689,6

Qiziriq – 1 381,2

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Jarqo'rg'on tumani **16,1 %** ulush bilan **20 583,9** ming. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat eksporti tarkibida eng quyi ulushni Bandixon tumani **1,1 %** ulush bilan **1 381,2** ming. AQSh dollarini tashkil etdi.





MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Surxondaryodagi meva-sabzavot sektori mamlakat va hududlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim segment hisoblanadi. Shuning uchun, bu sohada meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish uchun barcha choralar ko'rilmogda, bu esa o'z natijalarini bermoqda.

Meva-sabzavot eksporti hajmi **55 241,1** tonnani va qiymat jihatidan **38 331,0** ming AQSh dollarini tashkil etdi (qiymat ko'rsatkichi bo'yicha o'sish sur'ati 2020 yilning shu davriga nisbatan **37,8** foizga kamaygan). Buning asosida **31 541,7** ming AQSh dollari miqdorida **46 419,1** tonna sabzavot, shuningdek, **2 947,1** ming AQSh dollari miqdoridagi **3 569,5** tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (sabzavotlar qiymatining pasayish darajasi, 2020 yilning shu davriga nisbatan mos ravishda **40,5** % ni va meva va rezavorlar **43,9** % ga oshdi).

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2021- yil yanvar-avgust)



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Pokiston, Afg'oniston, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Ukraina hamda Tojikiston davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, 2021- yil yanvar-avgust oyida meva va sabzavotlarning umumiy eksportdagi ulushi **30,0** foizni tashkil etdi.





MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2021- yil yanvar-avgust)



Davlatlar	tonna	ming. AQSh dollari	ulushi, % da *
Pokiston	7 403,4	15 720,9	41,0
Afg'oniston	9 741,7	7 767,5	20,3
Rossiya Federatsiyasi	11 685,3	7 047,5	18,4
Qozog'iston	17 854,7	3 815,0	10,0
Ukraina	3 754,7	771,6	2,0
Tojikiston	934,2	484,6	1,3
Qirg'iz Respublikasi	397,3	453,8	1,2
Belarussiya	1 206,1	406,1	1,1
AQSH	95,4	397,8	1,0
Ozarbajjon	254,0	290,0	0,8
Eron	216,0	213,3	0,6
Turkmaniston	1 180,6	178,6	0,5
Birlashgan Arab Amirliklari (BAA)	110,4	171,4	0,4
Turkiya	121,2	134,5	0,4
Polsha	44,1	103,9	0,3
Xitoy	76,7	95,9	0,3
Boshqa davlatlar	165,3	278,4	0,7

* qiymat ifodasidan

Meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Pokistonga to'g'ri keladi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **41,0 %**), bu Afg'onistonga eksport hajmidan **20,7** baravar ko'pdir.





TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishini to'g'ridan -to'g'ri tayyor mahsulot ishlab chiqarish va paxta xomashyosi ishlab chiqarish o'rniga qo'shilgan qiymatni shakllantirish borasidagi islohotlar natijasida ko'rib chiqish mumkin. Masalan, 2021- yil yanvar-avgust oylari natijalariga ko'ra, to'qimachilik mahsulotlari eksporti **69 879,8** ming AQSh dollari miqdorida amalga oshirildi, bu umumiy eksport hajmining 54,8 foizini tashkil etdi va 2020 yilning yanvar-avgustiga nisbatan **53,7** foizga oshdi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida paxtadan yigirilgan ip (**79,8 %**), tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (**5,1 %**) asosiy ulushni egallagan.


TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-avgust, ming. AQSh dollari)



	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Mahsulot nomi	49 383,1	45 478,7	69 879,8
 Paxtadan yigirilgan ip	44 860,0	37 605,7	55 773,3
 Paxta matolari	2 710,1	317,0	3 554,2
 Ipak va ipak mahsulotlari	1 638,5	1 105,1	933,8
 Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	140,4	3 513,8	1 299,0
 Vatka, kigiz va to'quv bo'lmagan materiallar, arqon mahsulotlari	-	7,7	66,0
 Boshqa mahsulotlar	-	29,5	37,3
 Gilamlar va to'qimachilik pol qoplamalari	5,0	23,8	17,6
 Boshqa to'qimachilik mahsulotlar	29,2	89,5	5,5
 Boshqa mahsulotlar	-	488,7	2,5





DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-avgust, ming. AQSh dollari)



	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Xitoy Xalq Respublikasi	36 794,6	34 540,0	53 517,9
Pokiston	4 944,9	3 152,8	6 851,9
Rossiya Federatsiyasi	4 480,8	1 143,9	4 625,9
Turkiya	1 756,6	1 911,7	3 418,2
Qozog‘iston	-	-	759,3
Tojikiston	5,0	99,1	317,5
Qirg‘iz Respublikasi	-	4 205,1	207,7
Hindiston	-	174,1	64,7
Ukraina	-	-	57,2
Germaniya	-	-	57,0
Afg‘oniston	29,2	168,1	2,5
Belarussiya	70,4	83,8	-
Eron	781,3	-	-
Vetnam	520,3	-	-

To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Xitoy Xalq Respublikasi (**53 517,9** ming. AQSh dollari – **76,6 %**), Pokiston (**6 851,9** ming. AQSh dollari – **9,8 %**) va Rossiya Federatsiyasi (**4 625,9** ming. AQSh dollari – **6,6 %**) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.





SURXONDARYO VILOYATINING IMPORTI

(2021- yil yanvar-avgust)




2021- yilning yanvar-avgust oylarida import hajmi **145 863,6** ming. AQSh dollarini va 2020- yilga nisbatan **23,7 %** ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**42,7 %**), sanoat tovarlari (**35,6 %**) hamda oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**11,0 %**) hisobiga to'g'ri keldi.

XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2021- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2020- yilning yanvar-avgustida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **27 895,8** ming. AQSh dollariga ko'payib, **145 802,2** ming AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **61,4** ming. AQSh dollariga yetdi.





SURXONDARYO VILOYATI XSST BOYICHA IMPORT TARKIBI (yanvar-avgust, yillar kesimida)



XSST tarkibi	Ming. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Jami import	117 927,0	145 863,6	67,9	123,7	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	16 049,8	16 021,7	69,6	99,8	13,6	11,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	6 248,4	5 891,7	97,9	94,3	5,3	4,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1 898,4	1 000,2	6,7 p.	52,7	1,6	0,7
Hayvon va o'simlik moylari, yog'lar va mumlar	394,9	1 159,8	38,3	2,9 p.	0,3	0,8
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	5 820,1	3 567,4	147,9	61,3	5,0	2,5
Sanoat tovarlari	43 649,6	51 913,0	162,0	118,9	37,0	35,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	37 920,0	62 319,1	39,2	164,3	32,2	42,7
Turli xil tayyor buyumlar	5 925,3	3 929,3	39,8	66,3	5,0	2,7
Xizmatlar	20,6	61,4	46,3	3,0 p.	-	-





XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-avgust)



XSST bo'limi nomi	Ming. AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	7582,0	3,1 m.
Tirik hayvonlar, 03-bo'limga kiritilgan hayvonlardan tashqari	4895,3	2,8 m.
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	2045,5	127,5
Hayvonlarga ozuqa (ishlov berilmagan donalardan tashqari)	852,0	10,1
Go'sht va go'sht mahsulotlari	480,1	46,8
Turli xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlari	79,5	37,8
Shakar, shakar mahsulotlari va asal	51,2	29,3
Qahva, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	35,9	26,6
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Probka va yog'och-taxtalar	3703,1	86,5
Xayvonlar va o'simliklardan olinadigan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari, boshqa joyda tavsiflanmagan	882,3	2,8 m.
Moy olinadigan uruglar va moy olinadigan mevalar	869,4	84,0
56-bo'limga kiritilganlardan tashqari o'g'it xomashyosi va mineral xom ashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	306,0	49,9
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	83,2	-
Tabiiy kauchuk (shu jumladan sintetik kauchuk)	28,0	-
Qog'oz va chiqindi qog'oz	19,8	-
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	995,4	53,1
Ko'mir, koks va briketlar	4,8	21,3
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	848,7	80,7
Kimyoviy mahsulotlar va boshqalar	649,7	44,7
Tibbiy va farmatsevtika mahsulotlari	368,8	103,7
Organik kimyoviy moddalar	241,6	118,8
Birlamchi bo'lmagan plastmassalar	149,9	155,1
Noorganik kimyoviy moddalar	119,3	128,2
Efir moylari, resinoidlar va parfyumeriya moddalari; tualetga tayyorgarlik, jilolash va yuvish vositalari	49,1	4,4
O'g'itlar (272 guruhga kiritilganlardan tashqari)	36,6	76,1
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	21,5	15,8





XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-avgust)




XSST bo'limi nomi	Ming. AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	42355,9	132,4
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	4406,5	67,1
Boshqa toifalarga kiritilmagan metall buyumlar	2183,7	120,0
Probka daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	1156,6	2,5 m.
To'qimachilik iplari, matolar, tayyor mahsulotlar va boshqalar	795,1	57,7
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	793,8	65,6
Rezina buyumlari boshqa joyda tavsiflanmagan	203,9	90,7
Rangli metallar	16,1	2,5 m.
Teri, tayyor charm buyumlar, mo'yna	1,2	-
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	36537,9	2,1 m.
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	16737,1	122,1
Avtomobililar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	3539,7	70,7
Boshqa toifalarga kiritilmagan elektr mashinalari ,apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari (boshqa toifalarga kiritilmagan elektr maishiy texnika elektr bo'lmagan qismlari)	3047,3	4,5 m.
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunolari	2249,3	3,6 m.
Metallni qayta ishlash uchun mashinalar	158,8	25,6
Kanselariya mashinalari ishlab chiqaruvchi mashinalari va ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash uskunolari	45,7	92,4
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish aparaturalari va uskunolari	3,3	3,8
Turli xil tayyor buyumlar		
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari boshqa joyda tavsiflanmagan	1733,3	36,1
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	1651,9	6,1 m.
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	340,9	46,3
Mebel va ularning qismlari, ko'rpa-to'shaklar, zambil, matras ustunlari, yostiqlar va shunga o'xshash narsalar	134,1	2,2 m.
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	47,9	2,4 m.
Poyabzal	11,4	61,3

Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari

9,8

16,3






So'nggi yillarda MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlar bilan import ulushining saqlanish dinamikasi kuzatildi, bu chegaralar ichida 37,1: 62,9 nisbatda.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-avgust, ming. AQSh dollari, ulushi, % da)



2021- yilning yanvar-avgust oylari yakuni bo'yicha Surxondaryo viloyati tomonidan **41** davlatdan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi. Importning uchdan bir qismi (**124 914,9** ming AQSh dollari) Xitoy Xalq Respublikasi (importning umumiy hajmidagi ulushi **39,1 %**), Qozog'iston (**14,3 %**), Rossiya Federatsiyasi (**12,3 %**), Turkiya (**6,5 %**), Ukraina (**5,7 %**), Pokiston (**4,1 %**) va Germaniya (**3,6 %**) kabi yirik hamkor davlatlarga to'g'ri keladi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR NING ULUSHI
(2021- yil yanvar-avgust, % da)





SURXONDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN IMPORT HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-avgust, yillar kesimida)



Davlatlar	Ming. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Xitoy Xalq Respublikasi	50377,4	57054,7	81,5	113,3	1	1
Qozog'iston	15188,3	20853,3	105,5	137,3	3	2
Rossiya Federatsiyasi	16319,3	17976,6	108,7	110,2	2	3
Turkiya	8480,5	9470,9	38,0	111,7	4	4
Ukraina	1528,6	8330,2	47,1	545,0	11	5
Pokiston	1655,1	6034,4	43,5	364,6	10	6
Germaniya	2745,1	5194,7	220,5	189,2	7	7
Eron	1124,9	4320,2	18,9	384,0	13	8
Tojikiston	5998,3	2981,9	67,2	49,7	5	9
Belgiya	65,1	2965,2	168,7	4555,1	29	10






SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2021- yil yanvar-avgust)



	Ming. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati	145 863,6	123,7
Termiz sh.	28 146,8	137,2
tumanlar:		
Oltinsoy	1 352,8	179,3
Angor	1 425,5	63,5
Bandixon	581,5	2,3
Boysun	1 699,7	109,5
Denov	9 550,3	52,4
Jarqo'rg'on	6 665,8	64,5
Qumqo'rg'on	2 524,2	257,4
Qiziriq	14 793,4	2 177,4
Muzrabot	26 852,8	1 712,1
Sariosiyo	9 516,5	107,8
Termiz	24 834,2	593,4
Uzun	944,7	8,8
Sherobod	1 303,6	15,6
Sho'rchi	2 661,2	84,6

Eng yuqori hajm,
ming. AQSh dollari

Termiz sh. - 28 146,8

Muzrabot – 26 852,8

Termiz - 24 834,2

Eng quyi hajm,
ming. AQSh dollari

Sherobod - 1 303,6

Uzun - 944,7

Bandixon - 581,5

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Muzrabot tumani **19,3 %** ulush bilan **28 146,8** ming. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat importi tarkibida eng quyi ulushni Bandixon tumani **0,4 %** ulush bilan **581,5** ming. AQSh dollarini tashkil etdi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.:76-225-65-74

